

JISMONIY MADANIYAT VA SPORT FAOLIYATI JARAYONIDA JAMOANI SHAKLLANTIRISH

To'libayeva Nazokat Davronbek qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti maktabgacha talim fakulteti maktabgacha va boshlang'ich talimda jismoniy tarbiya va sport yonalishi 2 kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolamiz o'qituvchi va talabalar o'rtasida olib boriladigan muomalalari, bir-biriga bo'lgan e'tiborlari, sog'lom turmush tarzi, aqliy mehnati, o'z kasbiga tayyorlash jarayonlari, tashkilotchilik ishlari, qobiliyat-lari, ularni rivojlantirishda bolani ichiga kirishish kerakligi, o'yinlardan foydalanib talabani ruhiyatiga ta'sir ko'rsatish kerakligi haqida fikr ma'lumot berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: o'qituvchi, talaba, ruhiyat, tashkilotchilik, insoniy fazilatlar, munosabatlar, jarayon, tadbirlar, jamoat, o'yinlar, manfaat, jismoniy mashqlar.

Jamoatchilik munosabati deyilganda, o'zaro yordam va hamkorlik munosaba-ti, o'zaro mas'uliyatlilik va talabchanlik, o'rtoqlik va do'stlik, shaxsiy va jamoat manfaatlarining birligini tushunish qabul qilingan. Talabalar jamoasida jismoniy mashqlar yuklamasidan keyin organizmni qayta tiklash, gigienik tadbirlarning mazmuni yuqori faoliyat uchun sharoit yaratadi. Uzoq davom etgan yuklama organizmda moslashish reaksiyasining paydo bo'lishiga yordam beradi, kislorod iste'mol qilishning yuqori samaradorligiga olib keladi, vegetativ asab tizimlari faoliyat ishining osoyishtaligini ta'minlaydi.

Umumiy chidamlilik, o'rtacha quvvatlilik jismoniy ishni davomli bajarish qobiliyatini tavsiflaydi. Jismoniy madaniyat fakultetlari talabalarini kasbga tayyor-lash, bo'lajak o'qituvchida sog'lom turmush tarzi, aqliy mehnat madaniyatining tarbiyalanishi, mehnat qobiliyatini qayta tiklashni jadallashtirish uchun jismoniy tarbiya vositalaridan bilimdonlik bilan foydalana bilish kerak.

Sog'lom turmush tarzi organizmning zaxira imkoniyatlarini mustahkamlaydi, uning ijtimoiy-kasbiy vazifalarining yaxshi bajarishga yordamlashadi, mehnat va dam olish tartibini takomillashtirishga ko'maklashadi. Jismoniy o'z-o'zini tayyor-lash jarayonida, o'qituvchi mehnatining sharoitini tavsifidan kelib chiqib e'tiborni umumiy bardoshlik singari jismoniy sifatning rivojlanishiga qaratmoq lozim. U asosan aqliy

mehnat bilan band bo'lgan odamlarning mehnatga layoqatligiga eng samarali ta'sir ko'rsatishini ko'pgina ilmiy tadqiqot ishlari natijalari tasdiqladi. Mashq qilish yordamida yosh ulg'ayishi bilan ro'y beradigan layoqatligini susa-yish jarayonini sekinlashtirishi mumkin.

Jismoniy tarbiya va sport faoliyati jarayonida jamoatchilik munosabatlarining shakllanishi pedagogik shartli talablar o'quv mehnati munosabatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ularning turli xil mehnat va jamoatchilik faoliyatini oshiradi.

Jismoniy tarbiya jarayonida tashkilotchilik sifatlarining shakllanishi -

o'qituvchi shaxsining tashkilotchilik sifati deyilganda, uning ijtimoiy ruhiy xusu-siyati va sifati tushuniladi, uning yordamida jamoani maqsadga muvofiq ravishda

ko'zlangan niyatiga erishish uchun ular boshqaradigan odamlar guruhining shun-chalik, ko'zlangan jipslikka erishiladi. Tashkilotchilik qobiliyatining yuqori dara-jada rivojlanganligi o'qituvchiga bolalar ruhiyatini, ularning individual xususiyatini; pedagogik muomila va ta'sir ko'rsatish usullarini egallashga; o'quvchilar ora-sidagi ishni birgalikda to'g'ri taqsimlashga, hammasini yakunlash va kelajakdagi vazifalarni belgilashni tushunishiga imkon beradi.

Xaqiqiy tashkilotchi rahbari o'ziga xos fazilatlarini 3 guruhga ajratiladi.

I. O'quvchilar ruhiyatini tez va chuqur sinchiklab bilib olish qobiliyatini, ular

bilan munosabatda bo'lganda ishonchli uslubni topa bilishda, individual qobiliyatiga muvofiq har biri uchun umumlashtirishda, ma'lum bir joyni tanlab olishda ko'rinadigan tashkilotchilik qobiliyati.

II. Emotsional - iroda ta'sirchanlik ya'ni o'zining munosabati bilan o'quvchi-larga ta'sir ko'rsata olish qobiliyati, o'ziga va ularga nisbatan o'ta talabchanlik, tanqidiy va o'z-o'zini tanqid qilish ko'zi bilan qarash qobiliyati, rahbarlik va tash- kilotchilik faoliyatiga layoqatligi

III. O'qituvchining tashkilotchilik mahoratini 3 ta asosiy guruhga ajratish mumkin.

1) Maktab o'quvchilarini o'qish va o'qishdan tashqari bajariladigan xilma-xil

turlarini tashkillashtirish bilan bog'liq bo'lgan mahorati, "xatti-harakati" va

boshqalar.

2) Turli xil faoliyatning unsurlarini tashkil qilish bo'yicha mahurat (o'quvchi-larni rag'batlantirish bo'yicha mahorati, ularning ayrim

harakatlarini darsga va darsdan tashqari ishlarda tashkil qilish bo'yicha mahorati).

3) Xilma-xil harakatlar va faoliyat turlarining muvofiqlashtirish o'zaro aloqa-dorligini ta'minlaydigan mahoratdan iboratdir.

Jismoniy tarbiya jarayonida tashkilotchilik sifatlarini shakllantirish rolini o'yinlarda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ular talabalarda rolli ta'sir ko'rsatish

qobiliyatining rivojlanish vazifalarining yechishiga imkon beradi. Rolli o'yinda

natija vaziyatga emas, balki, qabul qilingan rol bo'lib hisoblanadi. Rolli o'yinlar

talabaning ma'lum real faoliyatida va ular o'rtasidagi munosabatlarda vujudga

keladigan vaziyatni modellashtiradi, faoliyatini boshqarish usuli sifatida qo'llanil-sada, ular tarbiya uslubi hamdir. Harakatli va sport o'yinlar rollilar sifatida foyda-laniladi. Ularda funkcionalli rollarning mushkulligi talabalarda tashkilotchilik qobiliyatining ro'y berishida uslubiy "modeli" sifatida foydalanishiga imkon bera-di. O'yinlarning maqsadi, uning shakli va mazmuni ishtirokchilar o'rtasida rollarni muvofiq ravishda taqsimlash va uyushtirish bilan aniqlanadi. Talabalar funkcionalli rollarni bajargan paytda egallayotgan tajriba, pedagogik faoliyatida tashkilotchilik sifatiga aylanadi. O'yin uslubining pedagogic ta'sir ko'rsatishining mohiyati, shaxsning tashkilotchilik sifatini loyihalashtirishdan iboratdir, unga ma'lum faoli-yatda bajarishga to'g'ri keladigan majburiyatlarni o'zlashtirishga yordam berish-dan iborat.

Bo'lajak o'qituvchilarda o'yin faoliyatidagi tashkilotchilik sifatlarini shakl-lantirish, muayyan pedagogik shartlarga rioya qilishni nazarda tutadi: ta'lim jara-yonida o'yin uslublarini o'rgatishning boshqa usublari bilan o'qitishning o'zaro bog'liqligi; reallikka maksimal yaqinlashgan vaziyat tug'dirish; rollarni qabul qilish va o'yinlar o'tkazishga talabalarning ruhiy tayyorgarligi; o'yinlar o'tkazish jarayonida pedagogning rolini belgilashdir.

Ko'rsatib o'tilgan pedagogik shartlar o'quv va o'yin talablarni birga qo'shib

olib borishga va topshirilgan pedagogik jarayonning maqsadga qaratilgan holda

amalga oshirishga yordam beradi. Talabalarda tashkilotchilik sifatlarini shakllani-shini o'z ichiga oladi.

- Talabalarning individual xususiyatlarini o'qituvchilar tomonidan o'rganish-lari, talabalar o'rtasida guruhlariga rahbarlik qilish va boshqarish bo'yicha mas'uli-yatlarni taqsimlash.

- Mashg'ulotlarni oldiga qo'ygan vazifalarini yechish yo'llarini aniqlash, qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun zaruriy bilimlardan talabalarni xabardor qilish, zaruriy inventar va uskunalarini tayyorlash, oldindan o'ylab qo'yilgan pedagogik vaziyatni vujudga keltirish.

- Talabalarni oldiga qo'yilgan vazifalarni mustaqil yechish yo'llarini topishni o'rgatish.

- Talabalar faoliyatini ortidan kuzatish, o'z vaqtida ularga yordam ko'rsatish, ularni rag'batlantirish va tanbex berish.

- Eng yaxshi tajribalardan foydalanish va umumlashtirish, tashkilotchilik faoliyatini bajarishini baholash va yakun yasash, murakkablashtirish tamoyili bo'yicha yangi topshiriqlarni ilgari surishni o'z ichiga oladi.

O'qituvchida ijtimoiy faollikning har tomonlama rivojlanishi ulkan ijtimoiy va siyosiy ahamiyatga ega. O'qituvchi o'zining ijtimoiy va professional tayyorgar-ligini g'oyaviy va ijodiy shaxs sifatida bo'lgandagina oqlay oladi. O'qituvchi peda-gogik kasbida o'z oldida turgan vazifalarni yechish uchun o'ziga mas'uliyat olish-ga tayyor turadi, o'zining hayotiy faoliyat qobiliyatini amalga oshiradi, o'z profes-sional faoliyati doirasini kengaytiradi. Yoshlar o'qish – mehnat qilish, bilish va kommuniktiv faoliyati jarayonida nafaqat ijtimoiy ongda to'plangan ijtimoiy tajri-ba, ilmiy madaniy bilimlarni o'zlashtiradilar, balki ularni qayta o'zgartiradilar va ijodda ishtirok etadilar. O'qituvchilarning jismoniy tarbiya haqidagi g'amxo'rliqi har qanday mutaxassislikdagi o'qituvchining muhim ijtimoiy vazifaliridan biridir. Bu sohada o'qituvchidan ta'lim jarayonida hamda bevosita pedagogik faoliyatida namayon bo'ladigan mustaqillik va tashabbuskorlik, maqsadga intilishlilik uning ijtimoiy ahamiyatliligi bo'yicha anchagina faoliyatining kengligi talab etiladi. Mustaqil faoliyatda birinchi navbatda, pedagogni ijtimoiy faolligi amalga oshiri-ladi. Jismoniy madaniyat va sport faoliyati ijtimoiy faoliyat turi sifatida uning shakllari esa tashkilotchilik, pedagogik, targ'ibotchilik, hakamlikni bilishlik, o'z-o'zini takomillashtirish bo'lib hisoblanadi. Biroq bu sohada qo'yilgan pedagogik talablarning jamoat ishining tahliliy ko'rsatishiga, ularning professional tayyor-garligi yetarli darajada emasligidan dalolat beradi. Bunga asosiy sabablardan biri jismoniy tarbiya bo'yicha o'quv tarbiya jarayoniga pedagogik rahbarlikning yetarli darajada bo'lmasligi, o'qituvchi shaxsining ijtimoiy faolligini shakllantirishining barcha tomonlarini qamrab oladigan quyidagi pedagogik ta'sir ko'rsatishlarni talab etiladi: intellektual dunyoqarash, axloqiy emotsional

iroda, fe'l-atvorlik, extiyoj mo-tivatsion sohasi orqali amalga oshiriladi. Talabalar ijtimoiy determinatsiyasi birin-

chi navbatda ijobiy xatti-harakati motivatsiyasi faolligi yo'nalishini belgilay-digan shakllar extiyoji bilan bog'langan, shuning uchun bunday ehtiyojning shakllanishi ular ijtimoiy shaxsiy maqsadlar ahamiyatini ijtimoiy faoliyat jarayonida o'zining natijalarini, mazmunini anglash bilan o'z motivlarini jamoat ishlarini bajarishga muvofiq keltirish bilan bog'langan. Bu ziddiyatlar asosida yotadigan motivlarni talabalar o'z oldidagi qiyinchiliklarni qo'lidan kelguncha bartaraf etishlari, ularni oldidan rejalashtirilgan ijobiy manfaatlar yo'nalishi bo'yicha tarbiyala-shi, ijtimoiy faoliyatga intilishi, ideallik va extiyoj anglangan taqdirdagina erishish mumkin. Bo'lajak o'qituvchining ijtimoiy faolligini rivojlanishi ularga ma'lum hajmdagi siyosiy, psixologik-pedagogik va maxsus bilimlarni, tadqiqotchilik, kom-munikativ va mahoratlarni oshirish va shaxsiy sifatlarni talab qiladigan pedagogik vazifalarni yechishga yordam beradi.

Jismoniy tarbiya va sport vositalari yordamida tarbiya ishlarining yakuniy natijalari talabalarning ijtimoiy faolligi quyidagilar bilan aniqlanadi: jismoniy mada-niyat va sport faoliyatida ishtirok etishning shiddati (sarflanadigan vaqt va munta-zamlik), bajariladigan faoliyatning murakkabligi tavsifi; ijtimoiy faoliyat haqida dalolat beradigan axloqiy sifatlarning rivojlanish darajasi (burch, mas'uliyatlilik, intizomlik, tashabbuskorlik, mustaqillik): ijtimoiy pedagogic vazifalarni amaliy bajarish va bilimlar darajasi, jismoniy o'z-o'zini tarbiyalash darajasi; bo'lajak o'qituvchi shaxsining ijtimoiy faolligini muvaffaqiyatli shakllanishi. Jismoniy tarbiya sohasida o'zlashtirilgan ijtimoiy tarbiya talablarda o'qish-mehnat va ijtimoiy faoliyatda shakllanadi.

Talabalar kasbiy tayyorgarlik tizimining majburiy unsuri oliy o'quv yurtida ta'limning integral yakuni, o'zining tayyorgarligi natijalari bo'yicha o'z-o'zini nazorat qilish bo'lib hisoblanadi.

Tezkor nazorat bevosita ta'lim jarayonida amalga oshiriladi. Uning **asosiy**

vazifasi - talabalar aniq o'quv ishlari turlarini bajarishlari haqida axborot berish-dan iborat.

Joriy nazorat ma'lum bir o'quv mavzusi va bo'limlarni o'rganishi natijalarini baholashga imkon beradi. Yakuniy nazoratga talabalarning har tomonlama tayyor-garligi darajasini majmuali baholash kiradi. U pedagogic bilimlar, malaka va ko'-nikmalarini chuqur tekshirishga yo'naltirilgan.

Nazorat talabalarning bilish faoliyatini tartibi va faolligini rag'batlantirish ularning mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqishini oshirish, zaruriy kasb bilimlarini egal-lashlari uchun ularga o'quv materiallarini o'zlashtirish va har

tomonlama tayyor-garligiga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish uchun kerak. Nazorat o'rgatuvchi kuzatuvchi, tashkillashtiruvchi va tarbiyalovchi vazifasini bajaradi. Nazoratning vazifasi faqat ba'zi bir qoidalariga rioya qilingan taqdirda amalga oshirilishi mum-kin.

Nazorat muntazam bo'lishi kerak. Faqat shu holatdagina u o'zini ko'p tomon-li ta'sirini ko'rsatgan bo'ladi. Bilimlar, malaka va ko'nikmalarni tekshirish chuqur va har tomonlama bo'lishi lozim. Nazoratni individuallatirish har bir talaba ishi-ning xususiyatini, uning individual-psixologik fazilatini aniqlashga imkon beradi. Tekshirish natijalari oshkora bo'lishi kerak. Bu katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib burch, mas'uliyat hissini rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, talaba o'zining bilim va mahorati nafaqat o'quvchilar xususiyatiga moslashtirib yetkazishni uddalay oladi, balki maktab o'quvchilar jismoniy tarbiyasining ayrim masalalari bo'yicha bilim ko'nikma va malakalar tizimini ko'rib chiqishni ham biladi.

Pedagogik vazifalarni yechishni qoniqarli bajarish bilan uddalay oladi. Aso- san tarbiyalashni muvaffaqiyatli bajarishga imkon beradigan yetarli darajada shakl-langon ilmiy pedagogik bilimlar, malaka va ko'nikmalarga egalik qiladi. Biroq uzluksiz o'zgarib turadigan pedagogik vaziyatda pedagogik vazifalarni yechish-ning uslubini izlamaydi.

Pedagogik faoliyatga tayyorgarlikning birinchi uchta darajasi uning maqsad-lari, vositalari va natijalarini to'la birligini ta'minlay olmaydi, binobarin uning pirovard maqsadini amalga oshirishga ma'lum darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi. Talabalar oldida turgan pedagogik vazifalarni muvaffaqiyatlashtirishning asosiy sharti ularni ijodiy va fe'l-atvor darajasiga erishishdan iboratdir. Albatta, yonda-shuvning bunga o'xshatish «darajasi» ma'lum darajada nisbiydir. Ko'rsatilgan belgilar qattiq chegaralanmagan, bir-birini inkor etmaydi, biroq, jismoniy tarbiya va sport vositasi bilan pedagogik faoliyat olib borishga tayyorgarligini aniqlash uchun mo'ljal bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Talabaning pedagogik mahorat darajasining mezonlari o'quvchilarning tarbi-yalanganlik darajasi ko'nikma va malaka, bilimlar sifati bo'lib hisoblanadi.

Barcha o'quv bo'limlarida talabalarni jismoniy tarbiyalash jarayonida kasb-peda- gogik tayyorlash bo'yicha sinov talablarining namunaviy mazmuni, jismoniy tarbi-yaning kasbiy yo'nalishini muvaffaqiyatli tashkil etish sinov mezonlari va talab-larni ma'lum darajada aniq rejalashtirish bilan belgilanib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAT RO'YHATI

1. A.I.Avazboyev, Y.U.Ismadiyarov - Kasbiy pedagogika O'quv qo'llanma Toshkent - 2014
2. Sh.I.Po'latova - Dars ta'limida rivojlantirish texnologiyasi va prinsiplari.
3. Sh.I.Po'latova - Umumta'lim maktablarida o'quvchilarni jismoniy tarbiya o'qituvchisi kasbiga qiziqishini shakllantirish samaradorligini oshirish shartlari va metodlari. vol. 2 no. 8 (2023): theory and analytical aspects of recent research
4. Гулҗаё Мухаммадаминовна Тўйчиева Касбий-билиш компетенцияни шакллантиришнинг ўзига хослиги// integration of science, education and practice. Scientific-methodical journal 2022/11/30. -№ 3/9. -с.139-142
5. Sh.I.Po'latova - Shaxsning individual psixologik – xususiyatlari
6. Г.М.Тўйчиева - Бўлажак ўқитувчиларнинг касбий - билим компетенциясини шакллантириш //муғаллим ҳем узликсиз билимлэндири² -2023. - № 2/1 сан. -с.125-129
7. Sh.I.Po'latova - Dars ta'limida rivojlantirish texnologiyasi va prinsiplari.
8. Ismoilov T.U. - Jismoniy tarbiya o'qituvchisining pedagogik faoliyati O'quv qo'llanma. Namangan – 2018